

IV

Zafar HAYITOV

# DOSTON IJROCHILIGI (BAXSHICHILIK)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
YUNUS RAJABIY NOMIDAGI  
O'ZBEK MILLIY MUSIQA SAN'ATI INSTITUTI

Zafar HAYITOV

## DOSTON IJROCHILIGI (BAXSHICHILIK)

5151600-Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lim yo'nalishi uchun

O\*QUV-USLUBIY QO\*LLANMA



TOSHKENT - 2021

O'quv-uslubiy qo'llanma 5151600-Xalq ijodiyoti (baxshichilik va dostonchilik) ta'lif yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. O'quv uslubiy qo'llanmada doston ijrochiligining Surxandaryo dostonchilik maktabida keng qo'llaniladigan nag'malar, ularning yaratilishi tarixi, ijro o'mni haqida ma'lumotlar berilgan.

O'quv-uslubiy madaniyat xodimlari, musiqshunos va folklorshunosha hamda san'at va madaniyat yo'nalishida tahsil olayotgan oliy ta'lif muassasasi talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

#### Mas'ul muharrir:

**O.Axmedova** – fanlari doktori, professor

#### Taqrizchilar:

**J.Eshonqulov** – filologiya fanlari doktori, professor

**B.Matyoqubov** – san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanma Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti O'quv-uslubiy Kengashining 2021 yil 28 apreldagi 9-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

#### KIRISH

Doston – o'zbek xalq ijodi va mumtoz musiqasining yirik janri bo'lib, o'ziga xos mavqeyi, mazmuni, shakli, ichki qonuniyatları va ijro uslublari bilan ajralib turadi. Xalq dostonlarida epik tasvir ko'pincha nasr (so'z) bilan, lirik kechinmalar esa sher va musiqa orqali ifodalanadi. Xalq ijodkorligi va donoligining bu nodir janri ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi. Shu bois xalqning asrlar davomida to'plagan tajribalari, voqeylekka xissiy munosabati badiiy matndagi sheriymisular, nag'ma va aytimlarda badiiy ifoda etilgan. Shu bilan birga, dostonchining bevosita tinglovchilar davrasida to'lib-toshishi, ijrochining tinglovchilar bilan jonli muloqatda bo'lishi, badihago'ylik mahoratiga tayinishi doston ijrochiligidagi muhim kasb etadi. Musiqa ham hikoya va sh'er kabi dostonchilikning asosiy komponentlaridan hisoblanadi. Xalq dostonlari badiiy matn –turli-tuman, cholg'u turlari –ijrochi (baxshi) birligida namayon bo'ladigan o'ziga xos ijro uslublari bilan e'tiborni tortadi. Dostonlar baxshi –shoirlar tomonidan kuyylanadi, demak, musiqiylik bu janrning yashovchanligini ta'minlaydigan eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Doston she'riy va nasriy parchalardan iborat matndan, aytim va cholg'u yo'llaridan, doston aytuvchining xonandalik san'atidan va soz cherta bilish mahoratining uyg'unligidan iboratdir. Har bir doston o'zining nasriy va nazviy unsurlarini musiqa cholg'usi jo'rnavozligida namoyon etadi. Ijrochi – baxshi- shoir cholg'u chertishni puxta o'zlashtirgan sozanda, she'riy parchalarni kuyga solib aytadigan xonanda, matnlarni badihago'yligik asosida bir zumda to'qib keta oladigan iqtidorli shoir, dostonda hikoya qilinayotgan voqealarni mahorat bilan tinglovchiga etqazadigan so'z ustasi, asar mazmunini harakat va mimika orqali ifodalovchi aktyor hamdir. Hajman yirik bo'lgan dostonlar baxshilardan badihago'ylik va musiqiy- nazmiy qobiliyatni, so'zlash mahoratini talab etadi.

Bugungi kunda Shoberdi Boltayev, Shomurod Tog'ayev, Qora va Chori Umirovlar, Xushvaqt Mardonqulov, Qahhor Rahimov va boshqa iste'dodli baxshilarning dostonchilik an'analariga amal qilishlari, hamda yoshlarni ushbu san'at turiga qiziqtira olishlari natijasida baxshichilik jonli ijroda shu kunlarda ham davom etayotgan bo'lsa-da, uning ijro

yo'nalishlarida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Dostonlarning sahnayiy talqinlari yuzaga keldi. Bularning bari baxshichilik san'atining og'zaki ijro sharoitlarida ham asta-sekinlik bilan so'nib borayotganligini ko'rsatmoqda. Endilikda xalq dostonlari xalqimizning buyuk ma'anaviy boyligi folklor merosi sifatida o'zining nashrlari hamda zamonaviy san'atdagi yangicha talqinlari bilan avlodlarga xizmat qilishda davom etadi.

Baxshi va uning doston ijro etish usullari bilan bog'liq o'zgarishlarni o'rganish, ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hozirgi tarixiy-folkloriy jarayon dinamikasi va postfolklorning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bugungi jonli ijro bilan bog'liq so'nish jarayonlari baxshichilik san'atining an'anaviy ijro usullarini o'zgartirib, yangicha talqinlarni yuzaga keltirdi. Garchi dostonchilik respublikamizning bir qator hududlarida so'ngan bo'lsa da, Janubiy O'zbekiston vohasida ijro shakllari o'zgargan holda davom etmoqda. Bunday holatlar folklordagi individual va jamoaviy ijod mutanosibligining buzilishiga olib keldi. Baxshilar dostonchilik an'analarni doirasida dostonlar ijro qilishga harakat qilsalarda, bugungi adabiy-madaniy muhit tufayli o'zlarida mualliflik hissi, an'anaviy doston matnlariga ijodiy yondashuv tuyg'usini shakllantirmoqda. Epik ijro bilan bog'liq bunday o'zgarishlar esa baxshilarning o'zlarini kuylayotgan dostonlarga bilib-bilmay o'zgartirishlar kiritib, doston matnlarini murakkablashtirish va buzishga, ijroda sun'iy, yasama dostonlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Chunki baxshining xotirasida mavjud epik bilim ijtimoiy-madaniy omillar bilan uyg'unlashib, u ijro etayotgan doston matnlariga ta'sir ko'rsatishi tabiiy jarayondir.

Dostonlarning asosiy musiqiy- she'riy janri- termadir. Terma so'zi va kuydan tashkil topib, musiqa cholg'u-do'mbira yoki qo'biz, shunungdek, Xorazm dostonchiligida cholg'u ansambl jo'mavozligida kuylanadi. Har bir dostonda 5 tadan to 36 tagacha kuy-ohanglar qo'llaniladi. Doston kuylari nag'ma, nola yoki "baxshi kuy" deb ataladi. Doston termalari o'z nomiga ega bo'lib masalan Surxondaryo, doston nag'malari – "Kelinoy nag'masi", "Qo'ng'irot nag'masi", "Sarboz nag'masi", "Ot xaydash nag'masi" va x.k. Doston musiqasi asar sifatida eposga yaxshilik

bog'ishlaydi. Har bir dostonda nag'ma yoki nola asar termalarini yangicha ohang, ritm va shakl bilan boyitib boradi. Mavjud ohanglar har bir she'riy matnda ularning mazmuniga qarab qo'llanadi. Bunday ohanglar doimiy tarzda turlicha talaffuz, tasnif, ritm va shakllar bilan yangilanib boradi. Natijada lirik, quvnoq, raqs bob ko'tarinki ruhdagi jozibador harakterdagи kuylar dostonlardan o'r'in oladi. Biz shu fikrlardan kelib quyida bugungi kunda jonli holda yashab kelayotgan nag'malarni o'rganib ularni nota yozuvlariga tushirishga harakat qildik. Kelajakda ushbu nag'malardan talabalar va keng qiziquvchilar oqilona foydalana olsa dostonlardagi musiqiy o'ziga xoslikni yashovchanligini ta'minlashga xizmat qila olamiz.

## “OQTO‘SHIM” NAG‘MASI



*Ijrochi: O‘zbekiston xalq baxshisi Shoberdi Boltaev  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov  
2020 yil*

O‘zbekiston xalq baxshisi Shoberdi Boltaevning ma’lumot berishicha, “Oqto‘shim” nag‘masi cho‘ponlar tomonidan yaratilgan kuylardan biridir. Aytishlaricha, bir cho‘ponning o‘zi qora, to‘shi oq iti bo‘lib, u itiga Oqto‘sh nomini bergen ekan. Cho‘pon qo‘y-qo‘zilarini tog‘ yon bag‘irlarida, dala-dashtlarda boqib yurganda, iti doim uni yonida hamrohi va qo‘riqchisi bo‘lar ekan. Shu sabab, bir daqiqa bo‘lsada o‘z egasini yolg‘izlatmagan itini cho‘pon juda yaxshi ko‘rganidan, mehri tovlanib “Oqto‘shim” nag‘masini yaratgan deyishadi.

Bu nag‘ma keyinchalik baxshilar orasida ommalashib, dostonlarning boshlanish qismida yoki o‘rtalarida ijro etila boshlagan.

Soz:

**Allegro**



## “OXUVO” NAG‘MASI

*Ijrochi: O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov*



2020 yil

O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximovning ma’lumot berishicha, “Oxuvo” nag‘masi saylga chiqib sho‘x-shodon qiyqirib halinchak uchayotgan qizlarning jo‘sinqin kayfiyatiga qarab yaratilgan nag‘malardan biridir.

Baxshilar tomonidan dostonlar ijro etilayotgan vaqtida dostonlarning o‘rtasida ijro etiladigan nag‘malardan biri.

Sozi:

Allegretto



## “ONA YIG‘LAMA” NAG‘MASI

Ijrochi: O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov

Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov

2020 yil



O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximovning ma’lumot berishicha, bu nag‘ma asosan dostonlarning mungli og‘ir joylarida ijro etiladi. Bu nag‘ma “Ona nolasi” deb ham yuritiladi.

Aytishlaricha, bu nag‘ma jangga ketgan farazandini sog‘inib, bag‘ridillari vayron bo‘lgan onalarning mungli qismatini ifodalar ekan.

“Nuralining yutilishi” dostonida Avazxon poygada Suluvxonga Nuralini yutqizib qo‘yadi, buni bilgan Nuralining onasi “voy bolam”, - deb yig‘lab, yurak bag‘ri pora bo‘ladi. Aynan dostonning shu joyida baxshilar ushbu nag‘madan keng foydalanganliklarni kuzatishimiz mumkin.

Sozi:

Moderato



## “G‘ARIBNOMA” NAG‘MASI

*Ijrochi: O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov*

*2020 yil*

O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximovning ma‘lumot berishicha, bu nag‘ma XX asrning boshlarida “Alpomish” dostonini ijro etish vaqtida Qodir baxshi Raximov tomonidan yaratilgan nag‘malardan biri.

“G‘aribnoma” nag‘masi doston qahramonlarining boshiga og‘ir kun tushganda ijro etilgan nag‘malardan biridir.

Masalan, “Alpomish” dostonida Alpomish enasiga o‘zini tonitmasdan, “checha” deb turganda, enasi uni ich-ichidan savlatidan sezib,

G‘aribim deb badanimni shovshatim,


Alpomishga o‘xshatdim, Xov checha degan tilingdan,

Dushman qutilmas qo‘lingdan, Men ayrildim jon bolam,


Alpomishday ulimdan, - deb yig‘lab turgan bir pallada baxshilar tomonidan “G‘aribnoma” nag‘masi ijro etilar ekan.

Sozi:

Allegretto



2



## “DOLG’IR OT” NAG‘MASI

Ijrochi: O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov


Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov

2020 yil

O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximovning ma’lumot berishicha, ushbu nag‘ma asosan “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida ijro etishda chalinadi. Masalan, ko‘pincha Go‘ro‘g‘li sulton dolg‘ir otining beliga minib, aziz avliyolarning haqi hurmati xudodan madat so‘rab, dushmanga yuzma-yuz kelganda dolg‘ir otiga marmiz berib, sog‘-salomat borib kelayin, deb ketayotgan joyida ijro etiladi.

Sozi:

Allegretto



### "JO'RG'A NAG'MASI


*Ijrochi: O'zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov*

2020 yil


"Jo'rg'a" nag'masisi Abdumurod Raximov tomonidan 2001-yilda yaratilgan.



Bu nag'madan juda ko'p holatlardan foydalaniadi. Masalan, baxshilar tomonidan doston ijro etilayotgan paytda, qahramonlarni otiga mamiz berib, otini jo'rg'alatib, suvlig'ini chaynatib, qamchisini o'ynatib ketayotgan joyini ijro etayotganlarida ushbu nag'mani chaladilar. Ba'zi baxshilar esa dostonni boshlashdan oldin do'mbirani jo'rlab, ovozni sozlab olishda ijro etgan. Xatto bu nag'madan ayollar sumalak qaynatayotgan vaqtida, kelin-qizlarni o'ynatib doira jo'rligida ijro etilganlar.

Sozi:



Allegro





## “KELINOY” NAG‘MASI

Ijrochi: O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov

2020 yil

“Kelinoy” nag‘masicidan бахшилар асосан “Kelinoy” dostonini ижро этганда фойдаланадилар. Ушбу dostonning Oypari qirqin qizi bilan, ming bir nozi bilan, bir birining izi bilan, qo‘lida sozi bilan, bo‘ta ko‘zi bilan o‘zining shirin so‘zi bilan qoshidagi qizlarini iyartib yobonga chiqqan жойини таърифлаш жараёнида ijro etilgan nag‘ma.

Sozi:



Allegretto

### “BOBOMUSLIM” NAG‘MASI

Ijrochi: O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov

Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov

2020 yil

O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximovning ma’lumot berishicha, Bobomuslim ismli bir kishi machitning imomi bo‘lgan ekan. Bir kuni Bobomuslim bir baxshidan do‘mbirasini qo‘liga olib, machitning peshtoqiga qo‘yilgan yog‘ochning ta’rifini kuya solib, ijro etishini so‘rabdi. Shunda baxshi shu “Bobomuslim” nag‘masini ijro etgan ekan deyishadi.

Sozi:

The musical score consists of eight staves of music for a single instrument. The key signature is A major (two sharps), and the time signature is common time (indicated by a 'C'). The tempo is Allegretto, as indicated by the instruction above the staff. The music features a continuous pattern of eighth-note chords and sixteenth-note figures, typical of folkloric or traditional-style compositions.

This section of the musical score continues the pattern established in the previous page. It consists of eight staves of music for a single instrument, maintaining the A major key signature and common time. The style remains consistent with the first page, featuring a steady stream of eighth-note chords and sixteenth-note patterns.

## “NORGULOY” NAG‘MASI


*Ijrochi: O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov*

*Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov*


*2020 yil*

Bu nag‘ma Qodir baxshi Raximov tomonidan yaratilgan. Baxshi doston kuylayotganda go‘zal malikalarni ta’rif etish uchun, uning nomiga atab ijro etgan nag‘malardan biridir.

Sozi:



*Allegretto*



### "OT HAYDASH" NAG'MASI

*Ijrochi: O'zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov  
2020 yil*

Ushbu nag'ma "Alpomish" dostonida "Alpomish qalmoq elidan qaytib, Boysunga borayotganda,  
Boychiboriga qamchi chotib,  
Qamchisi simday botib,  
Qomchidan qo'rqqan sag'ana o'zini o'qtay otib, otiga mamiz berib ertaroq Boysunga etkar", - deb jadallashtirib ketayotgan joyida ijro etilgan nag'malardan biri.

Sozi:

**Allegretto**

**“TURKMAN” NAG’MACI**  
*Ijrochi: O’zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov  
 Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov  
 2020 yil*

“Turkman” nag’masi Qodir baxshi Raximov tomonidan yaratilgan nag’malardan biri.

Baxshi doston yoki terma ijro etayotgan vaqtida, ovoziga dam berish uchun, doston eshitib o’tirgan tinglovchini zeriktirmaslik maqsadida “Turkman” nag’masini ijro etgan.

Sozi:

The musical score consists of ten staves of music for a single instrument. The key signature is A major (two sharps), and the time signature is common time (indicated by '4'). The tempo is Allegretto, as indicated by the instruction above the staff. The music features eighth-note patterns and some sixteenth-note figures, primarily using quarter notes and eighth-note chords. The score is presented on a five-line staff with a treble clef.

The musical score consists of ten staves of music for a single instrument. The key signature is A major (two sharps), and the time signature is common time (indicated by '4'). The tempo is Allegretto, as indicated by the instruction above the staff. The music features eighth-note patterns and some sixteenth-note figures, primarily using quarter notes and eighth-note chords. The score is presented on a five-line staff with a treble clef.

## “ZIYODA” NAG‘MASI

Ijrochi: O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov  
2020 yil

“Ziyoda” nag‘masi 2017-yilda Abdumurod Raximov tomonidan qizlar ismiga atab yaratilgan nag‘malardan biri. Asosan dostonlarning sho‘x joylarida ijro etiladi. Shu bilan bir qatorda sho‘x termalar aytilganda, tinglovchilarining ruhiyatini ko‘tarish maqsadida ham shu nag‘mada ijro etiladi.

Sozi:

The musical score consists of eight staves of music for a single instrument. The key signature is one sharp (F#). The time signature is 8/8. The tempo is Allegretto. The music features a variety of rhythmic patterns, including eighth-note chords and sixteenth-note figures. The notation is in standard musical staff format with black notes on white stems.

This block continues the musical score from the previous page. It consists of ten staves of music for a single instrument, continuing the Allegretto tempo and 8/8 time signature. The notation remains in standard musical staff format with black notes on white stems, showing a continuation of the rhythmic patterns established earlier.

## “ALIXON” NAG’MASI

Ijrochi: O’zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov

2020 yil

“Alixon” nag’maning yaratilishi quyidagicha: Alixon bobo ismli do‘mbirakash ijodkor bo‘lgan. U doston kuylamagan faqat do‘mbirada nag’ma ijro etgan, nag’malarni ham maromiga etkazib ijro etgan.

Dostonlar ijro etilganda baxshilar ovoziga dam bergen vaqtida shu “Alixon” nag’masi ijro etilgan.

Sozi:

The musical score consists of ten staves of music for a single instrument. The key signature is A major (no sharps or flats). The time signature is common time (indicated by 'C'). The tempo is Allegretto (indicated by 'Allegretto'). The music features a continuous pattern of eighth-note chords and sixteenth-note figures, primarily in the right hand, with occasional left-hand chords. The notes are mostly black, with some white notes appearing as grace notes or specific rhythmic patterns.

The musical score consists of ten staves of music for a single instrument. The key signature is A major (no sharps or flats). The time signature is common time (indicated by 'C'). The tempo is Allegretto (indicated by 'Allegretto'). The music features a continuous pattern of eighth-note chords and sixteenth-note figures, primarily in the right hand, with occasional left-hand chords. The notes are mostly black, with some white notes appearing as grace notes or specific rhythmic patterns.

### **“DUPIR” NAG‘MASI**

*Ijrochi: O‘zbekiston xalq baxshisi Abdumurod Raximov  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov  
2020 yil*

Asosan bu nag‘madan baxshilar doston qahramonlarini oti ustiga minib, sovutini kiyib, qo‘liga keskir qilichini olib, dubilg‘asi boshida jangga kirayotgan joylarni tasvirlayotganda ijro etganlar.


Sozi:

### **CHO'PON CHERTISH**

*Ijrochi: O‘zbekiston xalq baxshisi Shoberdi Boltaev  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov  
2020 yil*

Qo‘y qo‘zilarini xosga to‘yintirgandan keyi, ularni uyurib bir joyga to‘plagan vaqtida, Cho‘pon (Daxmarda xam deyiladi) do‘mbira sozini qo‘liga olib shu cho‘pon chertish nag‘mani ijro etgan. Baxshi doston ijro etayotgan vaqtida doston o‘rtalarida ovoziga dam berish maqsadida ijro etib keladi.

Sozi:




### DIL IZHORI

Dil izxori nag'masini Z.Hayitov tomonidan 2015 – yilda yaratilgan kuy.

Sozi:

Allegretto






### Hiloloy nag masi

Z. Hayitov tomonidan 2015-yilda yaratilgan kuy. Hiloloy deyilishidan maqsad yangi oy chiqqan kuni yaratilgan kuy.

Sozi:

A musical score for 'Hiloloy nag masi' featuring ten staves of music. The key signature is one sharp (F#), and the tempo is Allegretto (indicated by 'Allegretto'). The score consists of eighth-note chords and rests, typical of a folk-style composition.



**Qobodiyon nag'masi**


*Ijrochi: O'zbekiston xalq baxshisi Shoberdi Boltayev  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov*

*2020 yil*

Ozbekiston xalq baxshisi Shoberdi Boltayevning malumot berishicha Tojikiston Respublikasida Qobodiyon tumani bor va shu tumanning baxshilari tomonidan ijro etilgan nag'ma. Xizmat safari bilan brogan vaqtimda o'rghanman deydi Shoberdi Boltayev. Baxshilar doston ijro etayorgan vaqtida, baxshilardan qobodiyondan xam bo'lsin deb so'ralgan vaqtida ijro etib beriladigan nag'malardan.

Sozi:

**Allegro**



### *OG'AJONNING NAG'MASI*

*Ijrochi: O'zbekiston xalq baxshisi Shoberdi Boltaev  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov  
2020 yil*

Qadim o'tgan zamonda Surxon degan tomonda bir yigit bo'lган екан. Kunlarning birida tog'da ot o'ynatib suvlig'ini jaynatib yurgan bir vaqtida, o'zi bilmagan xolda dushmanlarga duch kelib qolibdi. Qancha xarakat qilmasin dushmanlarga kuchi yetmabdi va dushmanlar yigitni o'ldirib qo'yibdi. Buni eshitgan oila a'zolari qattiq qayg'uga botibdi. Yigitni singlisi sog'inib ko'rgisi kelib, og'asining xidlarini sog'inib, xonasiga kirsa uyning bir chetida, og'asi chertib yuradigan do'mbira cholg'usi chang bosib turganiga ko'zi tushibdi. Og'asi ijro etib yuradigan nag'masi yodiga tushib, mendek singling bo'la turib og'amming sumbul sozi chang bosib turadimi deb shu ogajonning nag'masini ijro etgan екан.

Sozi:

*Allegretto*



## QIRG'IZ NAG'MA


*Ijrochi: O'zbekiston xalq baxshisi Shoberdi Boltayev  
Yozib oluvchi va nota yozuviga tushuruvchi: Z.Hayitov  
2020 yil*

Qirg'iz nag'ma kuyi baxshilar tomonidan, dostonlarni ijro etishidan oldin tinglovchini o'ziga qaratish maqsadida ijro etiladigan nag'malardan biri.

Shoberdi Boltayev Qirg'iziston mamlakatiga 1989 yil gastrol safari bilan borgan vaqtida Qirg'iziston cholg'uchilarinig ijrosidan tasirlanib shu qirg'iz nag'ma kuyini do'mbira cholg'usida yaratgan.

Sozi:

Allegro



## XULOSA

Ma'lumki, ezgulikni ulug'lash va bunyodkorlik g'oyasi qon-yodiga singib ketgan xalqimizning benihoya yuksak badiiy dahosi bilan yaratilgan nomoddiy madaniy meros durdonalarini asrab-avaylash, xalq badiiy ijodiyotning qadimi an'analarini tiklash va milliy qadriyatlarni izchil rivojlantirish mamlakatimiz ma'naviy-madaniy taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktabrdagi "2010-2020 yillarga mo'ljallangan nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 222-sون qarori asrlar sarhadlari osha bamisoli olmosday jilolanib, ko'ngil chamanida umidbaxsh chechaklar bo'y ko'rsatgan, har bir kishi diliga ezgulik baxsh etuvchi benazir folklor an'analarini targ'ib etish, "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Tohir va Zuhra" singari buyuk dostonlar yuzasidan fundamental tadqiqotlar yaratish, xalq og'zaki badiiy ijodi yodgorliklarini to'plash va nashr etish, folklor asarlarini ijro etuvchi iqtidor sohiblari, ayniqsa, hozirga qadar o'zining jonli epik an'analarini saqlab kelayotgan baxshilar ijodini yanada rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar ochib berdi.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda nomoddiy madaniy meros jumladan, xalq baxshilari ijodiyotini tadqiq va targ'ib etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Har ikki yilda bir marta an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan Baxshi-shoirlar, oqinlar va jirovlarning Respublika ko'rik-tanlovi qadimi dostonchilik ijodiyotini davom ettirib kelayotgan ko'plab yosh baxshilarni kashf etishda xizmat qilmoqda. "O'zbekiston" radiokanalining baxshilar hayoti va ijodiga eshittirishlarning berib borilishi epik tafakkur durdonalari sirasiga mansub barhayot dostonlarni xalqimiz orasida keng ommalashtirmoqda.

Xalqimizning g'oyatda boy va serqirra badiiy ijodiyoti an'analarini rivojlantirib, asrlar osha sayqallanib kelgan buyuk dostonlarni jonli ijro orqali avloddan-avlodga yetkazishda epik xotirasi beqiyos bo'lgan badihago'y baxshilarning xizmatlari kattadir. Baxshilarimiz yaratgan va ijro etgan doston va termalarda xalqimizga xos yuksak vatanparvarlik, samimiyat, olijanoblik, insonparvarlik, ona yurtga ulkan muhabbat, sof

muhabbat va sadoqat o'z ifodasini topgan. O'z sozi va so'zi orqali ajdodlarimiz pandnomasini dostonlar vositasida yosh avlodni yuksak ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shib kelayotgan baxshilarimiz repertuaridagi asarlarda Vatanga sadoqat, el-yurt birligi, mehnatsevarlik, or-nomus, g'urur kabi g'oyalar tarannum etiladi. Zero, xalq dostonlari ajdodlarimiz ma'naviy qarashlari, o'ziga xos turmush tarzi, ijtimoiy hayoti, mardlik, vatanparvarlik, qahramonlik, erk va ozodlik bilan bog'liq ezgu g'oyalari bilan yuzaga kelgan.

Baxshilar o'zining epik bilimi, xotirasi, repertuarining tarkibi, ustoz-shogirdlik an'analarining o'ziga xosligi, ijro usuli va badiiy mahoratiga ko'ra bir-biridan farqlanadilar. Shuning uchun ham mamlakatimizning har bir hududida o'ziga xos epik an'analar majmui, ustoz-shogird an'analar, ijod uslubi va ijrochilik yo'llariga ega bo'lgan dostonchilik maktablari shakllangan. Folklorshunoslikda xalq baxshilarining epik ijodiyoti Bulung'ur, Qo'rg'on, Nurota, Shahrisabz, Narpay, Sherobod, Qamay, Piskent, Xorazm dostonchilik maktablariga bo'lib tasniflanadi. Ana shu dostonchilik maktablarining har biridan ko'plab baxshi-shoirlar yetishib chiqqan.

Baxshilar ustozlaridan o'rgangan an'anaviy dostonlar va termalarni ijro etish bilangina chegaranib qolmasdan, o'z boshlaridan kechirgan voqealar, tevarak-atrofda ro'y bergen hodisalar, xullas, hayotiy voqelikni she'rga solib, yangidan-yangi epik asarlar, ko'pincha, termalarni yaratganlar. An'anaviy termalar pand-nasihat, odob-axloq, mehrmuruvvat, farzand, yor, ot, soz va so'z, do'mbira, baxshi hayoti kabi mavzularni qamrab oladi. Zamonaviy termalarda bevosita hozirgi baxshilar yashagan davrdagi ro'y berayotgan voqealari to'g'risidagi asarlar ijro etiladi.

Mamlakatimizda ajdodlarimiz badiiy tafakkurining ulkan qamrovi tufayli yaratilgan boy nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash, ulardan foydalanish, targ'ib va tadqiq etish borasida izchil ish olib borilayotganligi bois, baxshichilik an'analarining saqlanishi va rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Ayniqsa, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarining Shahrisabz va Sherobod baxshichilik maktablariga mansub ko'plab baxshilar bugungi kunda ham qadimi ijrochilik an'analarini

saqlab kelayotganliklari, ularning har biri iqtidorli yoshlarni tarbiyalayotganliklari ham fikrimiz dalilidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktabrdagi 222-son qarori bilan tasdiqlangan “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi” Davlat dasturidagi dolzarb vazifalarni bajarish hamda o‘zbek xalq baxshilarining hayoti va ijodi, ular mansub bo‘lgan dostonchilik maktablarining o‘ziga xosligi, ustozshogirdlik an’analalarining saqlanish darajasi, hozirgi kunda ijod qilayotgan yosh baxshilar epik repertuarining boyib borish jarayoni, istiqlol davrida erishgan olamshumul yutuqlarimizning baxshilar tomonidan kuylanishini kengroq yoritib berish maqsad qilib oldik.

Xalqimizda “Baxshisi bor elning baxti bor” degan ajoyib naql bor. Darhaqiqat, xalqimizning bebaho badiiy qadriyatlarini o‘zining takrorlanmas badihago‘ylik iqtidori bilan sayqallashtirgani holda o‘lmas dostonlarimizga jo bo‘lgan hayotbaxsh g‘oyalarni yosh avlod qalbiga singdirishdek ezgu ishga katta hissa qo‘sghan xassos baxshilarini e’zozlagan, ma’naviy merosi qadr topgan, boqiy an’analari ulug‘langan elning istiqboli ham oydin bo‘ladi.

## GLOSSARIY

TERMIN	IZOH
<b>Baxshi</b>	Epik ijodkor. Xalq dostonlarini og‘zaki tarzda kuylovchi san’atkor. Bu san’tkorlar o‘z san’atini og‘zaki o‘zlashtirganlar, og‘zaki ijro etganlar va og‘zaki tarzda meros qoldirganlar. Baxshilar ich ovozda va tashqi ovozda kuylovchi baxshilarga bo‘linadi. Baxshilar odatda dumbira, qo‘biz, ba’zan tor va dutorda ham doston kuylashi mumkin.
<b>Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li</b>	Bulung‘ur dostonchilik maktabining so‘nggi talantli vakili (1872—1955).
<b>Ergash Jumanbulbul o‘g‘li</b>	Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining eng so‘nggi talantli vakili (1868—1937).
<b>Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan</b>	Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining eng so‘nggi talantli vakili (1874—1941).
<b>Saidmurod Panoh o‘g‘li</b>	Nurota dostonchilik maktabi vakili (1858—1945).
<b>Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li</b>	Nurota dostonchilik maktabi vakili (1878—1956).
<b>Oshiq Oydin Pir</b>	XII-XIII asr. Xorazm Shirvoniylar va Eroniy uslublarga molik baxshilardan
<b>Otash baxshi</b>	XVIII-XIX asr. Xorazm Shirvoniylar va Eroniy uslublarga molik baxshilardan
<b>Eshvoy baxshi</b>	XVIII-XIX asr. Xorazm Shirvoniylar va Eroniy uslublarga molik baxshilardan
<b>Nurjon baxshi</b>	XVIII-XIX asr. Xorazm Shirvoniylar va Eroniy uslublarga molik baxshilardan
<b>Bola baxshi</b>	1899-1994 y.y Xorazm Shirvoniylar va Eroniy uslublarga molik baxshilardan
<b>Soqi Bulbul</b>	Baxshilarning epik piri
<b>Bobo Qambar</b>	Baxshilarning epik piri
<b>Ko‘r G‘oyib</b>	Baxshilarning epik piri
<b>Oynazar baxshi</b>	XVIII asrning oxiri — XIX asrning boshlarida Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi Qamay qishlog‘ida yashab ijod qilgan yetuk so‘z

	ustalaridan biri Qamay dostonchilik mактабига асос solgan ijodkor
Rustam shoir	XIX asrning boshlarida Chiroqching “Qipchoq saroy” qishlog‘ida yashab ijod qilgan atoqli baxshilardan biri
Iskandar baxshi	Iskandar baxshi XIX asrning o‘rtalarida Qamashi tumanining To‘qboy qishlog‘ida yashagan zukko baxshilardan biri bo‘lgan. Chiroqchi, Qamashi va Jom shoirlar uning ijodiga katta ta’sir ko‘rsatgan.
Abdukarim juyruk	XIX asrning yirik baxshilaridan biri
Xolnazar baxshi	XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshida Qashqadaryo viloyatining Sarbugajili qishlog‘ida yashab ijod qilgan bu baxshi xalq orasida “mulla Xolnazar” nomi bilan mashhur bo‘lgan.
Mardon shoir Mahman o‘g‘li	Chiroqchi dostonchilik maktabi an’anasini davom ettirishda, ustozlikda Mahman shoirning o‘g‘li Mardon shoir (1880-1919)ning shuhrati baland bo‘lgan. U Chiroqchi va Ko‘kdala (hozirgi Yakkabog‘ tumani) tumanlari va Samarqandda o‘ndan ziyod shogird yetishtirgan.
Abdulla shoir Nurali o‘g‘li	XIX asrda yirik epik markazlardan biri bo‘lgan Shahrisabz dostonchilik maktabi vakili. Abdulla shoir Nurali o‘g‘li Qatag‘on urug‘idan bo‘lib, 1874 yilda Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi Qaynar qishlog‘ida tug‘ilgan.
Rajab shoir Normurod o‘g‘li	Rajab shoir Normurod o‘g‘li 1887 yilda Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi To‘da chorvoq qishlog‘ida tug‘ilgan.
Ochil shoir Jumanazar o‘g‘li	Ochil shoir Jumanazar o‘g‘li 1891 yilda Qashqadaryo viloyatining Qozoq qishlog‘ida tug‘ilgan.
Umir shoir Safar o‘g‘li	Atoqli xalq baxshisi Umir shoir Safar o‘g‘li 1894 yilda Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi Dehqonobod qishloq fuqarolar yig‘iniga qarashli Yetimquduq qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan.

Tog‘ay shoir Mahman o‘g‘li	Qoranayman urug‘iga mansub bo‘lgan Tog‘ay shoir Mahmanov 1895 yilda Chiroqchi tumanida tug‘ilgan bo‘lib, taniqli dostonchi shoir, baxshi hisoblangan.
Egamberdi yuzboshi	Kesovli jo‘zlar avlodidan bo‘lmish Egamberdi yuzboshi 1869 yilda Hisorsoyning Xayriobod qishlog‘ida dunyoga kelib, shu yerda voyaga yetadi.
Qosim baxshi	XIX asrning o‘rtalarida Sherobod tumanida yashab o‘tgan bu buyuk baxshi “Qosim baxshi”, “Qosim yuzboshi”, “Qosimko‘r shoir” kabi nomlar bilan mashhur bo‘lgan. U sherobodlik Bobo shoirning eng iqtidorli shogirdi hisoblangan.
Alim baxshi	XIX asrning o‘rtalari - XX asrning boshlarida Sherobodning Beshqo‘ton qishlog‘ida yashab o‘tgan mashhur dostonchi Alim baxshi “Alpomish”, “Ollonazar Olchinbek”, shuningdek, “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarini mahorat bilan ijro etgan.
Sherna baxshi	Shernazar Berdinazar o‘g‘li (Sherna baxshi, Sherna yuzboshi) Sherobod tumanining Istara qishloq fuqarolar yig‘iniga qarashli Azon qishlog‘ida yetishib chiqqan ulkan so‘z ustasi bo‘lgan. Sherna yuzboshi sherobodlik Qosimko‘r degan yirik baxshining shogirdi edi.
G‘uchchi shoir	G‘uchchi shoir (G‘uchchi yuzboshi) XIX asrning ikkinchi yarmida Jarqo‘rg‘on tumanidagi Qorayog‘och qishlog‘ida yashab o‘tgan mashhur baxshi
Boymurod Boymat o‘g‘li	Sherobod dostonchilik maktabining taniqli vakillaridan biri Boymurod Boymat o‘g‘li taxminan 1855-1856 yillarda Sherobodda tug‘ilgan.
Jo‘ra shoir Eshmurod o‘g‘li	El orasida “Jo‘ra yuzboshi” nomi bilan tanilgan bu baxshi 1875 yilda Sherobod tumanining Xurramsho qishlog‘ida tug‘ilgan.
Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li	Iste‘dodli xalq baxshilaridan biri Mardonaqul baxshi Avliyoqul o‘g‘li Sherobod dostonchilik maktabining yirik vakillaridan biri bo‘lib, xalq

	orasida “Mardonaql yuzboshi” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan. U 1886 yilda Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi Chig‘atoy qishlog‘ida tug‘ilgan.
Mamadrayim baxshi Muhammad Sodiq o‘g‘li	Mamadrayim baxshi (Muhammadrayim baxshi Muhammad Sodiq o‘g‘li) 1889 yilda Surxondaryo viloyatining Jarqo‘rg‘on tumanidagi Jaloyir qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining 1958 yilgi folklor ekspeditsiyasi davrida aniqlangan bu baxshi Qo‘ng‘irot urug‘ining Vaxtamg‘ali shahobchasidan bo‘lib, yoshligidan juda ko‘p dostonlarni yod bilgan. U surxondaryolik mashhur baxshilar qumqo‘rg‘onlik O‘sar baxshidan “Nurali” dostonini, Xurramsho qishlog‘ida yashovchi Jo‘ra Eshmirza o‘g‘lidan “Alpomish”ni, Oqqo‘rg‘on qishlog‘ida yashovchi Turg‘un baxshidan “Malikai ayyor”, “Beg‘am shohning qizi Oybarchin” dostonlarini, shuningdek, Ahmad baxshidan ham bir necha xalq dostonlari hamda termalarni o‘rgangan. Ularni do‘mbira bilan emas, cholg‘u jo‘rligisiz o‘zining shirali ovozi bilan aytib yuravergan.
Toshmurod baxshi Turob o‘g‘li	Toshmurod Turob o‘g‘li 1897 yilda Surxondaryo viloyatining Denov tumanida dunyoga kelgan. Yoshligidan xalq qo‘shiqlari, terma, dostonlariga qiziqib, o‘sha davrning dongor baxshilariga ergashib, dostonchilikni o‘rganishga kirishgan. Iste’dodli badihago‘y baxshi sifatida bir qancha zamonaviy terma va dostonlar ham yaratgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 2012. – 40 b.
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. T. 2020 yil 23 sentabr. O‘PQ-637-son

### II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

- 2.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 222-sonli Qarori. 2010 yil, oktabr.
- 2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni.
- 2.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. 2017 yil 31 may №PQ-3022. “Xalq so‘zi” gazetasi, 1 iyun 2017 yil.
- 2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori. 2018 yil 1 noyabr, PQ-3990-son

- 2.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori/ 2018 yil 26 aprel, 304-son

### III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

- 3.1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

- 3.2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng olyi bahodir. Asarlar, 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.
- 3.3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Asarlar. 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.
- 3.4. Mirziyoyev Sh.M. 2017 yil 3 avgust kuni O‘zbekiston ziyorilari vakillari bilan uchrashuvda so‘zlagan nutqi – Toshkent, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 3.5. Mirziyoyev Sh.M. Madaniyat va san’at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan nutqi. Toshkent, 2017-yil 25-dekabr [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 3.6. Mirziyoyev Sh.M. O‘tmishning aks sadosi, bugungi kunning jarangdor ovozi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro baxshichilik san’ati festivali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. Xalq so‘zi gazetasi, 2019-yil 7-aprel.
- IV. Asosiy adabiyotlar**
- 4.1. Абдуллаев Р. Байсун. Традиционная музыкальная культура. – Ташкент, 2006. – 124 с.
- 4.2. Асафев Б. О народной музыке / Сост., вст. ст. и comment. И. Земсовского и А. Кунанбаевой. – Л.: Музика, 1987. – 248 с.
- 4.3. Левин Т., при участии Сузукей В. Музыка новыхnomadov. Горловое пение в Туве и за ее пределами / Пер. с англ. Или Куна. – М.: Издательский дом “Классика – XXI”, 2012. – 336 с.
- 4.4. Материалы и статьи к 100-летию со дня рождения Е.В. Гиппиуса / Ред.-сост.: Е.А. Дорохова, О.А. Пашина. – М.: Издат. дом “Композитор”, 2003. – 216 с.
- 4.5. Мехнесов А.М. Народная традиционная культура. Статьи и материалы. К 150-летию Санкт-Петербургской консерватории / сост. Й.А. Валевская, К.А. Мехнесова; Вст. ст. Г.В. Лобковой. – СПб.: Нестор-История, 2014. – 17-22, 27-91 с.
- 4.6. Миронов Н. Музыка узбеков. – Самарканд, Издание узбекского государственного издательства, 1929. – 124 с.
- 4.7. Музикальная фольклористика: проблеми истории и методологии. Сб. статей. – М.: 1990. – 165 с.
- 4.8. Визго Т.С. Музикальные инструменты Средней Азии: исторические очерки / Под науч. ред. Ф.М. Кароматова и Г.А. Пугаченковой. – М.: Музика, 1980. – 192 с.
- 4.9. Беляев В.М. Очерки по истории музыки народов СССР. Вип. I. Музикальная культура Киргизии, Казахстана, Туркмении, Таджикистана и Узбекистана. М.: 1962.
- 4.10. Кароматов Ф.М. Узбекская инструментальная музыка (наследие). – Ташкент: Изд-во лит-ри и искусства им. Г. Гуляма, 1972. – 360 с.
- 4.11. Народное музыкальное творчество: Учебник / Отв. ред. О.А. Пашина. – СПб, Композитор, 2005. – 568 с.
- 4.12. Путилов Б.Н. Теоретические проблемы современной фольклористики. Курс лекций для студентов Музикально-этнографического отделения Санкт-Петербургской гос. консерватории (1995-1996 гг.). – СПб, 2006. – С. 105-106.

- V. Internet saytlari:**
- 5.1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali
- 5.2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
- 5.3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
- 5.4. [www.unesco.org/culture/ich](http://www.unesco.org/culture/ich)
- 5.5. [www.ichcap.org](http://www.ichcap.org)
- 5.6. [www.nmm.uz](http://www.nmm.uz)
- 5.7. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
- 5.8. [www.etmus.ru](http://www.etmus.ru)
- 5.9. [www.ruplace.ru](http://www.ruplace.ru)
- 5.10. <http://www.ethnomusicology.org>
- 5.11. <http://www.eduard.alekseyev.org>
- 5.12. [www.folkinfo.ru](http://www.folkinfo.ru)
- 5.13. [www.classicmusic.uz](http://www.classicmusic.uz)

Adadi 50 nusxa. Hajmi 3,6 b/t. Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$   
«Times New Roman» garniturasi. Ofset usulida bosildi.  
OOO “AKTIV PRINT” bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, Chilonzor 25, 1A.